

**ION-PLAZMA VA LAZER TEXNOLOGIYALARI INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.02/30.12.2019.FM.65.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY
UNIVERSITETI**

ZAXIDOVA MAVLYUDA ABDUKARIMOVNA

**ZARYADLANMAGAN ATOM VA MOLEKULALARNING SHAFFOF
QATTIQ JISM SIRTI BILAN O‘ZARO TA‘SIRINING RAMAN-
SPEKTROSKOPIYASI**

01.04.05 – Optika

**FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

TOSHKENT – 2024

Doktorlik (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi
Оглавление автореферата докторской (DSc) диссертации
Contents of the Doctoral (DSc) Dissertation Abstract

Zaxidova Mavlyuda Abdukarimovna

Zaryadlanmagan atom va molekulalarning shaffof qattiq jism sirti bilan
o‘zaro ta‘sirining Raman-spektroskopiyasi..... 3

Захидова Мавлюда Абдукаримовна

Раман-спектроскопия взаимодействия незаряженных атомов и молекул с
поверхностью прозрачного твёрдого тела.....25

Zaxidova Mavluda Abdukarimovna

Raman-spectroscopy of the interaction of non-charged atoms and molecules
with transparent solid surfaces.....49

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works..... 59

**ION-PLAZMA VA LAZER TEXNOLOGIYALARI INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.02/30.12.2019.FM.65.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY
UNIVERSITETI**

ZAXIDOVA MAVLYUDA ABDUKARIMOVNA

**ZARYADLANMAGAN ATOM VA MOLEKULALARNING SHAFFOF
QATTIQ JISM SIRTI BILAN O‘ZARO TA‘SIRINING RAMAN-
SPEKTROSKOPIYASI**

01.04.05 – Optika

**FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

TOSHKENT – 2024

Doktorlik (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.4.DSc/FM242 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy Universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (xulosa)) Ilmiy kengashning web- sahifasida (www.iplt.uz) va “ZiyoNet” Axborot-ta’lim portaliga (www.ziynet.uz.) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:

Nematov Sherzod Qalandarovich

Fizika-matematika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Mamadalimov Abdug‘afur Teshaboyevich

fizika-matematika fanlari doktori, akademik

Raxmatullayev Ilyos Arzimurodovich

fizika-matematika fanlari doktori, dotsent

Maxmanov Urol Kudratovich

fizika-matematika fanlari doktori, katta ilmiy xodim

Yetakchi tashkilot:

Toshkent davlat texnika universiteti

Dissertatsiya himoyasi Ion-plazma va lazer texnologiyalari instituti huzuridagi “DSc.02/30.12.2019.FM.65.01” raqamli Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengashning 2024-yil “_29_”_may__soat_14.30__dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 100125 Toshkent shahri, Do‘rmon yo‘li ko‘chasi, 33uy. Tel./Faks: (+99871) 262-32-54, 262-31-69, e- mail: info@iplt.uz, Ion-plazma va lazer texnologiyalari instituti majlislar zali).

Dissertatsiya bilan Ion-plazma va lazer texnologiyalari institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkun (№__raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100125 Toshkent shahri, Do‘rmon yo‘li ko‘chasi, 33-uy. Tel.: (+99871) 262-31-69.

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil “___” _____kuni tarqatildi.

(2024-yil “___” _____dagi №__raqamli reyestr bayonnomasi).

X.B.Ashurov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, t.f.d. professor

I.D.Yadgarov

Ilmiy darajalar beruvchi kengashning ilmiy kotibi, f.m.f.d., professor

U.K. Maxmanov

Ilmiy darajalar beruvchi kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, f.m.f.d., kat.i.x.

KIRISH (Doktorlik dissertatsiyasi (DSc) annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.

Hozirgi kunda, gaz oqimlarini boshqarish va turli moddalarning sirtiga ishlov berishga asoslangan yangi ishlanmalar butun dunyo bo'ylab ishlab chiqarishga keng va faol joriy qilinayotgan bir vaqtda, atomlar va molekulalarning qattiq jism sirti bilan o'zaro ta'sirining fizikaviy xususiyatlarini aniqlash, samarali mexanizm sifatida bu kabi muammolarni hal etishda muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega bo'lmoqda. Bu holat lazer nuri ta'sirida sirdagi boshqariladigan kimyoviy reaksiyalarni va qattiq jism sirtida avvaldan aniqlangan parametrarga ega bo'lgan o'ta yupqa qatlamlarni hosil qilish, gaz oqimlarini boshqarish imkoniyatlarini yaratish bilan bog'liq. Bugungi kunda molekulyar va atomar oqimlaridan foydalanish, o'ziga xos sirt xususiyatlariga ega bo'lgan materiallarni ishlab chiqish va sirtini qayta ishlashda yangi sifat darajasiga erishishga imkon berdi.

Hozirda, butun dunyoda sirtga ishlov berish bo'yicha yangi texnologiyalar, shu jumladan, unda nanofizikaviy xossalarni shakllantirish, atom va molekulalar oqimini sirt bilan o'zaro ta'siriga asoslangan holda boshqarish usullarini yaratish hamda keng qo'llash, innovatsiyalarning ustuvor yo'nalishlardan biriga aylandi. Shu bilan birga, sohada sirtga ishlov berish bo'yicha lazer metodlari va nanotexnologiyalar keng qo'llanilmoqda. Ushbu yo'nalishda, jumladan, zaryadlanmagan atom va molekulalarni shaffof qattiq jism sirti bilan ta'sirining raman spektroskopiyasini o'rganish bo'yicha tadqiqotlar ham ustivor hisoblanmoqda. Bunda, molekulalar (atomlar) va qattiq jism sirti orasidagi o'zaro ta'sir kuchini lazer nurlanishining intensivligini o'zgartirish orqali boshqarib, bu molekulalar (atomlar)ning ingichka shisha kapillyarlar va mayda g'ovak shishali filtrlar orqali oqimini (diffuziyasini) nazorat qilish mumkin. Bu holda, lazer nurlanishida qo'llaniladigan prinsipial yangilik, bu atom (molekula) yutilishi to'lqin uzunligiga mos lazer nurlanishi rezonans to'lqin uzunligini aniq tanlash orqali molekulalarni selektiv ajratish mumkinligidadir.

O'zbekistonda ham kimyoviy kataliz va moddalarga ishlov berishda ishlatiladigan yangi texnologiyalarning yaratilishi bilan bog'liq, atom va molekulalarning sirt bilan o'zaro ta'sirining noyob xossalarni o'rganish borasida fundamental hamda amaliy tadqiqotlar tizimli ravishda amalga oshirilmoqda. Bu sohada so'nggi yillarda, yuqori intensivlikka ega bo'lgan monoxromatik lazer nurining qattiq jism sirti xossalari va murakkab molekulyar tizimlarga ta'siri hamda ularda kuzatiladigan modda tuzilishidagi o'zgarishlarni aniqlash borasidagi tadqiqotlar ilmiy izlanish va ishlanmalarning negizini tashkil qilmoqda.

Ushbu dissertatsiya ishi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 17-fevralidagi № PQ-2789-sonli "Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2022-yil 28-yanvaridagi № PQ-60-sonli "2022-2026-yillarga mo'ljallangan "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", shuningdek, 2019-yil 22-avgustidagi № PQ-4422-sonli "Iqtisodiyot tarmoqlarni va ijtimoiy sohaning energiya samaradorligini oshirish, energiya tejovchi

texnologiyalarni joriy etish va qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirishning tezkor chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlarida ko'zda tutilgan ilmiy-texnik vazifalarni hal qilishga qaratilgan.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Ushbu dissertatsiya doirasidagi tadqiqotlar O'zbekiston respublikasida fan va texnologiyalarni rivojlantirishning II. "Fizika, astronomiya, energetika va mashinasozlik" fundamental tadqiqotlar dasturining ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi. Molekulalar va atomlarning qattiq jism sirti bilan o'zaro ta'siri hamda lazer nurlanishi ta'sirida geterogen muhitda sirtiy hodisalarini boshqarish bo'yicha tadqiqotlar yetakchi markazlar va oliy o'quv yurtlarida olib boriladi, jumladan: Institute of Light Physics (Germaniya), University of California, Berkeley (AQSh), Nagoya University (Yaponiya), Leiden University (Niderlandiya), Institute of Nanotechnology and Photonics (AQSh), Hanyang University (Janubiy Koreya), Tsinghua University (Xitoy), Xaddersfild universiteti (Buyuk Britaniya), Maks Plank sirt fizikasi instituti (Germaniya), Umumiy fizika instituti (Rossiya), A.F.Ioffe nomli Fizika va texnologiya instituti (Rossiya), O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Ion-plazma va lazer texnologiyalari instituti hamda dunyoning bir qator boshqa ilmiy markazlarida amalga oshirilmoqda. Germaniyadagi "Yorug'lik fizikasi" institutida lazer nurlanishining materiallar, shu jumladan, g'ovakli shishalar bilan o'zaro ta'siri bo'yicha, Kaliforniya universiteti, Berkli AQShda esa fotokimyoviy jarayonlar va sirt hodisalariga lazer nurlanishining ta'sirini o'rganish bo'yicha tadqiqotlar olib borilmoqda.

Molekulalarning (atomlarning) sirt bilan o'zaro ta'siri V.Kinga, (AQSH), K.Vada (Yaponiya), N.V.Karlov (Rossiya) va boshqalarning ilmiy guruhlarida o'rganilgan. So'nggi yillarda ushbu ilmiy muammo V.Bortolani (Italiya), I.V.Olenich (Ukraina) va boshqa bir qator tadqiqotchilarning ishlarida o'rganilgan. "Molekulalar + sirt" tizimida, shu jumladan, yorug'likning rezonansli ta'sirida kuzatiladigan raman sochilishi bilan bog'liq fizik jarayonlar P.J.Xendraning (Buyuk Britaniya) ko'p sonli ishlarida o'rganilgan¹.

Bugungi kunda ushbu sohadagi bir qator dolzarb muammolar o'z yechimini qisman topgan, xususan, yorug'lik maydonida molekulalarning qattiq jism sirti bilan o'zaro ta'sirining qutblanish mexanizmi nazariy jihatdan o'rganilgan.

1980-yillarda Rossiya Fanlar Akademiyasining Umumiy fizika institutida f.-m.f.d. Y.N.Petrov rahbarligida yupqa shisha kapillyarlar yordamida brom

¹Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi: Chen S., Liu Y., Shao C., Mu R., Lu Y., Zhang Y., Shen D., Fan X. Structural and optical properties of uniform ZnO nanosheets //Advanced Materials, 2005. Vol. 15. No 5. – P. 586-590; King F.W., Van Duyne R.P., Schatz G.C. Theory of Raman scattering by molecules adsorbed on electrode surfaces // J.Chem. Phys., 1978. Vol. 69. No 10. – P. 4272-4281; Bortolani V., March N.H., Tosi M.P. (Eds.). Interaction of atoms and molecules with solid surfaces // Springer Science and Business Media, 2013. – P. 665; Olenych I.B., Monastyrskii L.S., Aksimentyeva O.I., Sokolovskii B.S. Effect of bromine adsorption on the charge transport in porous silicon-silicon structures // Electronic Materials Letters, 2013. Vol. 9. No. 3. – P. 257-260 hamda www.scopus.com, www.nature.com, www.sciencedirect.com, Web of Science va boshqa manbalar asosida olib borildi.

molekulalari oqimini boshqarish hamda bunday jarayonlarning fizik mexanizmlarini rivojlantirish bo'yicha tadqiqotlar olib borilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Yorug'lik maydonida atom va molekulalarning qattiq jism sirti bilan ta'siri mexanizmlarini o'rganish modda sirtidagi fizik jarayonlarning fundamental asoslarini, shu jumladan, yangi turdagi texnologiyalar va moddalar ishlab chiqish imkoniyatini yaratadi. N.V.Karlovning ishlarida lazer nuri ta'sirida g'alayonlantirilgan selektiv molekulyar jarayonlarni o'rganish orqali moddalar va izotoplarni ajratishda qo'llaniladigan gaz oqimlarini boshqarish, boshqariladigan diffuziya jarayonlari, bug'lanish, kataliz va atmosferaga chiqarilayotgan zararli gazlarni nazorat qilish mumkinligi ko'rsatilgan. Ammo bu ishlarda, nurning adsorbsiyalangan molekulalarga selektiv ta'siriga urg'u berilib, rezonans yorug'lik ta'sirlashish jarayonini keskin oshirishi mumkinligiga e'tibor qaratilmagan. Gazlarni ajratish jarayonida asosiy omil sifatida bu molekulalarning uyg'otilganligi va ionizatsiyasi hisoblanib, qutblanish ta'sirining energetik jihatdan samaradorliginig ortiqliciga e'tibor qaratilmagan.

Zaryadlangan zarralarining qattiq jism sirti bilan o'zaro ta'sirini o'rganish O'zbekiston Fanlar Akademiyasi Elektronika institutida o'tgan asrning o'rtalaridan boshlab bir necha o'n yillar davomida o'rganilgan. Bunday o'zaro ta'sirning fundamental mexanizmlarini, ularni amalda qo'llanilishini o'rganishga bag'ishlangan ishlar, asosan, tezlatilgan va zaryadlangan zarralarning sirt bilan o'zaro ta'siriga qaratilgan edi. O'tgan asrning 80- va 90-yillarida O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining Issiqlik fizikasi bo'limida (S.A.Baxramov, M.A.Kasimdjanov, A.A.Zaxidov) optik muhitlarning fizikasi, xususan, elektro-optik va nochiziqli-optika xossalari o'rganish bo'yicha tadqiqotlar olib borilgan, bunda keng diapazonli to'lqin uzunliklarida yutilish spektoriga ega bo'lgan shaffof moddalar (kvars va ko'p komponentli shishalar, optik nurlolalar, nochiziqli rezonans gazlar, molekulyar moddalar va b.) ishlatilgan. Keyingi bosqichda tadqiqotlar ancha kengaytirilgan: fullerenlar, nanotrubkalar va rux oksidining nanotizimli yupqa plyonkasi kabi yangi materiallarning nanofizikasi ham qamrab olingan (Sh.U.Yuldashev, A.M.Koxxarov, S.S.Kurbanov, U.K.Maxmanov va b.).

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya ishi O'zbekiston Milliy Universiteti Fizika fakultetining ilmiy tadqiqot ishlari rejasi O'zR FA №K-12-004 "Kompozitsion nanomateriallar: berilgan fizik xossali elementlarni ishlab chiqish va sintezlash" Fundamental Tadqiqotlar Dasturi loyihasi (2015-2017-yy.) doirasida, shuningdek, O'zR FA Issiqlik fizikasi bo'limining (bundan keyin O'zR FA Ion-plazma va lazer texnologiyalari institutining) № F2-FA-F147 "Birlamchi fotosintez jarayonlarida quyosh energiyasining yuqori samarali aylanishlarining fizik mexanizmlarini o'rganish" (2012-2016-yy.) tadqiqotlar loyihasi doirasida amalga oshirilgan, bu davrda tadqiqotchi ushbu institutning "Kondensirlangan muhitlar fizikasi" laboratoriyasida tadqiqotlar olib borishda ishtirok qilgan. Dissertatsiya tadqiqoti, shuningdek, "Radarlarning to'lqin-optik elementlarini ishlab chiqish"ga bag'ishlangan "UNTC" xalqaro loyihasini bajarish (2007-2009-yy.), "Fotosintez

jarayonlarining fluoresent xossalarini o'rganish"ga qaratilgan "INTAS" Yevropa ittifoqi Assotsiatsiyasi va Shveysariya Milliy ilmiy fondi loyihalari doirasida (2008-2009-yy.), "Murakkab biomolekulyar tizimlarning sekinlashtirilgan va o'zgaruvchan fluoressensiyasini o'rganish"ga doir fuqarolik tadqiqotlarini rivojlantirish AQSH loyihasi (CRDF) №3377 (2011-2012-yy.) doirasida bajarilgan.

Dissertatsiya ishining maqsadi "molekula (atom) + sirt" tizimidagi o'zaro ta'sirning fizik tabiatini raman sochilishi metodi yordamida aniqlash, bu ta'sirda rezonansli lazer nurlanishining rolini hamda bu tizimda fluoressensiyaning o'zgarishini, shuningdek, lazer nurlanishi yordamida shisha kapillyarlarda diffuz molekular oqimini boshqarish mumkinligini va "molekula C60+ ZnO" sirt tizimida elektron bog'lanishining paydo bo'lishini ko'rsatib berishdan iboratdir.

Tadqiqotning vazifalari:

molekulalar (atom)ning, shu jumladan, C60 fulleren molekularining, lazer nuri ta'sirida qattiq jism sirti bilan o'zaro ta'sirini o'rganuvchi eksperimental metodlarni ishlab chiqish;

rezonans lazer nuri maydonida molekularning sirt bilan o'zaro ta'sirining raman sochilishi, rezonansli raman sochilishi yordamida kuzatish metodlarini ishlab chiqish va bu ta'sirlashish bilan bog'liq fluoressensiya xossalarini o'rganish; "molekula+sirt" tizimidagi o'zaro ta'sirini optik tolalar va tolali interferometrik qurilmalardan foydalangan holda eksperimental o'rganishning yangi imkoniyatlarini tahlil qilish;

adsorbentlarning sirt bilan o'zaro ta'sirlashuvining fizik prinsiplari qutblanish mexanizmiga asoslanishini va bu asosda ularning sirt bilan bog'lanish adsorbsion potensialining chuqurlashuvini ko'rsatish;

shaffof qattiq jism sirtiga adsorbsiyalangan molekular (atomlar)ning sirtga bog'lanish energiyasining o'zgarishi bilan raman sochilishi spektrlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni aniqlash;

kapillyar va mayda g'ovakli shisha filtrlar orqali diffuziyalanayotgan molekular oqimini rezonansli lazer nurlanishi yordamida boshqarish usulini ishlab chiqish;

raman sochilishining spektral xarakteristikalari bo'yicha C60 molekulari bilan ZnO sirti o'rtasida elektron bog'lanish yuzaga kelishini nazorat qilish imkoniyatini o'rganish.

Tadqiqot obyektlari. Dissertatsiya ishida tadqiqot obyekti sifatida shisha sirti (yupqa shisha kapillyar yoki g'ovak shisha) yuzasidagi ksenon atomlari va brom molekulari, shuningdek, ZnO plyonka sirtiga qoplangan C60 fulleren molekulari tanlab olindi. Shuningdek, atrof-muhitdagi fizik jarayonlarning murakkab biomolekular fluoressensiyasi xarakteristikalariga ta'sirini o'rganishda xlorofill va biomembranadan foydalanildi.

Tadqiqotning predmeti. Quyidagilar tadqiqot predmeti bo'ldi: zaryadlanmagan molekular (atomlar)ning shaffof jism sirti bilan o'zaro ta'sirining fizik tabiati, shu jumladan, qutblanish mexanizmi, ko'rsatilgan obyektlarning norezonans va rezonans raman sochilishi, yutilish va

fluoresensiyasi spektrlari, C60 fulleren molekulari bilan rux oksidi sirti o'rtasida lazer nuri bilan stimulyatsiyalangan kuchli o'zaro ta'sir mexanizmi, shuningdek, biomembranalardagi xlorofill molekulari fluoressensiyasi o'zgarishining fizik mohiyati.

Tadqiqot usullari. Dissertatsiya ishining eksperimental tadqiqotlarida raman, adsorbsion va fluoressent, spektroskopiya metodlaridan foydalanildi. O'rtacha quvvatga ega argon, ksenon hamda geliy-kadmiy lazerlaridan, shuningdek, neodim- granat Nd³⁺:YAG impulsli lazerdan foydalanildi. Rezonansli gaz oqimini selektiv qayd etish uchun mass-spektrometriya usulidan foydalanildi. ZnO ning nanotuzilmaviy sirtida yupqa qatlamli C60 molekulari geterotuzilmasining xossalarini va ularga lazer nurlanishining ta'sirini aniqlash uchun atom-kuch mikroskopidan hamda rentgen analizidan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagi natijalardan iborat:

molekulalarning (atomlarning) shaffof qattiq jism yuzasi bilan o'zaro ta'sirini kompleks analitik tadqiqotlar doirasida birinchi marta mass-spektrometriya va Raman spektroskopiyasidan foydalangan holda ushbu o'zaro ta'sirning sifat hamda miqdoriy tahlilini o'tkazish usullari ishlab chiqildi va shakllantirildi;

birinchi marta zaryadlanmagan molekularning (atomlarning) shaffof qattiq jism sirti bilan o'zaro ta'sirini, lazer nuri ta'sirida molekula (atom)ning qutblanishidan vujudga keluvchi dipol momentining shaffof qattiq jism yuzasida shakllanadigan "ko'zguli aksi" bilan o'zaro ta'siriga asoslangan qutblanish mexanizmi asosida tavsiflash mumkinligi eksperimental tarzda isbotlandi;

brom molekulari 514,5 nm li to'liq uzunlikka ega argon lazer nuri bilan rezonansli yoritilganda molekula va sirdan iborat tizimdagi o'zaro ta'sir potensialining ko'p marta ortishi eksperimental tarzda ko'rsatildi hamda tahlil qilindi;

birinchi marta to'liq uzunligi 488,0 nm bo'lgan lazer nuri maydonida ksenon atomlarining shaffof g'ovakli qattiq jismning sirti bilan o'zaro ta'siri natijasida molekulyar bog'lanish hosil bo'lishi eksperimental tarzda ko'rsatildi va bu bog'lanish qutblanish mexanizmiga ega ekanligi tahlil qilindi hamda ushbu jarayonda raman sochilishining stoks-antistoks komponentlari spektrlari yordamida "atom+sirt" tizimidagi elektron-tebranish xossalarini ko'rsatuvchi doimiylar aniqladi va baholandi;

shaffof qattiq jism yuzasida molekularning (atomlarning) o'zaro ta'siridagi energiya o'zgarishining raman sochilishi va fluoressensiya spektrlari yordamida miqdoriy tahlil usuli ishlab chiqildi hamda ilmiy jihatdan asoslandi;

fluoressensiya va rezonansli raman sochilishi metodlari molekularning (atomlarning) sirdagi adsorbsion xususiyatlarini o'rganishning samarali vositasi ekanligi, biomembranada joylashgan xlorofill molekulari fluoressensiyasining kinetikasi esa atrof muhitdagi fizikaviy shart-sharoitlarni ularga ta'sirini baholash uchun effektiv, original yangi usul ekanligi ko'rsatildi;

nanorelefl ZnO sirtiga yotqizilgan yupqa qatlamli C60 molekularidan iborat geterostrukturani to'liq uzunligi 325 nm bo'lgan, ultrabinafsha lazer nuri bilan yoritish natijasida "molekula-sirt" tizimini o'zaro ta'sirlashishining keskin

kuchayishiga eksperimental tarzda erishildi va bu jarayon dinamikasi raman sochilishi intensivligiga qarab nazorat qilishning yangi usuli sifatida taklif qilindi;

C60 molekullari va ZnO sirtining o'zaro ta'sirlashishini ulardagi raman sochilishi hamda fluoressensiyaning spektral xususiyatlari yordamida baholash mumkinligi ko'rsatildi, xususan, raman sochilishi spektrida kuzatiladigan, chastotasi 1080 sm^{-1} bo'lgan cho'qqining "C60+ZnO" tizimidagi elektron bog'lanishning bevosita ko'rsatkichi ekanligi nazariy tahlil etildi.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

brom molekulasini va ksenon atomining shisha kapillyarlar orqali diffuziyasi o'zgarishga lazer nurlanishini ta'sirini o'rganishga doir eksperimental qurilmalar ishlab chiqildi. Bu qurilmalar molekula/atomlarning shisha sirt bilan o'zaro ta'sirining mohiyatini, shuningdek, ularga lazer nurlanishining ta'siri fizik jihatlarini o'rganish imkonini beradi;

molekullar (atomlar)ning shaffof sirt bilan qutblanuvchan o'zaro ta'siri parametrlari, shu jumladan, bunday tizimni rezonansli lazer nurlari bilan nurlantirilgandagi o'zgarishlari aniqlandi;

shaffof sirt va molekula (atom) o'rtasidagi o'zaro ta'sir kuchini, tizimdagi raman nurlanishi stoks-antistoks komponentalarining intensivligi va spektrning o'zgarishiga qarab baholashning yangi usuli yaratildi;

geterostrukturali quyosh konvertorlarining samarali ishlashi uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan C60 fulleren molekullari va ZnO plyonkasi yuzasi o'rtasida vujudga kelgan elektron bog'lanishni raman sochilish spektrlaridan foydalangan holda kuzatish mumkinligi birinchi marta ko'rsatib berildi;

uzluksiz va davriy rejimlarda ishlovchi lazer nurlanishi bilan ta'sir qilish natijasida fluoressensiya intensivligi hamda uning spektridagi o'zgarishlardan foydalangan holda murakkab molekullarning qattiq jism sirti (shu jumladan biomembrandagi xlorofill molekullari) bilan o'zaro ta'sirini o'rganish mumkinligi ko'rsatildi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi norezonans va rezonans raman sochilishi lazer spektroskopiyasi, shuningdek, shisha kapillyarlarda hamda g'ovak shishadagi ikki tomoni ochiq tor kannalardan, fluoressensiya, yuqori sezgir mass-spektrometriya, rentgen analizi va atom-kuch elektron mikroskopiya metodlaridan foydalanilganligi bilan tasdiqlanadi. Lazer nurlanishi ta'sirida molekullar (atomlar) oqimlarining o'zgarishi, diffuziyaning molekulyar-kinetik nazariyasi asosida hisoblab topilgan qiymatlari bilan solishtirildi va olingan natijalarning mos kelishi ko'rsatildi. Dissertatsiya tadqiqotining eksperimental natijalari va xulosalari boshqa mualliflarning molekullar (atomlar)ning sirt bilan o'zaro ta'sirini nazariy o'rganish asosida olgan ma'lumotlariga mos keldi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Dissertatsiya natijalarining ilmiy ahamiyati unda zaryadlanmagan molekullar (atomlar)ning qattiq jism sirti bilan o'zaro ta'siri hamda uni lazer nurlanishi ta'sirida kuchaytirish, shuningdek, bu ta'sirni raman sochilishi, ayniqsa, rezonansli raman sochilishi parametrlari bo'yicha nazorat qilish mumkinligini ko'rsatuvchi ilmiy natijalardan iborat. Bunday o'zaro ta'sir umumiy xarakterga ega ekanligi va

nafaqat sirtidagi molekulalarga, balki inert gazlarning atomlariga ham taalluqli bo'lishi mumkinligi ko'rsatib berildi. "C60 + ZnO" tizimi holida "molekula-sirt" tizimidagi o'zaro ta'sirni o'rganish uning har ikkala tashkil etuvchilarining fizik-kimyoviy xossalarning juda katta xilma-xilligini aniqlashga yordam beradi. Bunday nanoo'lchamli tizimlarda raman sochilishining fizik xarakteristikalarini ularning tuzilishi va bog'lanish energiyasi to'g'risida muhim axborot olishga imkon beradi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati kapillyar va g'ovak shishalar, shuningdek, nanomateriallar qo'llanilgan geterogen yupqa qatlamli tuzilmalar asosida molekulyar va atomar oqimlarni boshqarish hamda nazorat qilishning yangi, yuqori samarali qurilmalarini, qazilma yoqilg'ilarni yonishi natijasida ajralib chiqadigan gazlarning ekologik muhitga zararli ta'sir ko'rsatadigan qismini ajratib olishning yangi usullarini yaratish imkoniyati bilan bog'liq. Sirtning unda joylashgan molekulalar (atomlar) bilan o'zaro ta'siri intensivligini nazorat qilish bo'yicha olingan natijalardan jonli obyektlarda kimyoviy va biokimyoviy reaksiyalarni kechishini nazorat qilish metodlarini ishlab chiqishda foydalanilish mumkin. C60 fulleren molekulalarining ZnO rux oksidi sirti bilan o'zaro ta'sir kuchini raman sochilishining spektral xarakteristikalarini bo'yicha baholash metodidan quyosh elementlari yasashda ishlatiladigan yangi materiallarda yorug'lik ta'sirida kuzatiladigan fizik jarayonlarni tahlil qilishda, yorug'lik ta'sirida "C60 + ZnO" tizimidagi elektron bog'lanish asosida esa yangi, samarali quyosh elementlarini yasashda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinganligi.

Zaryadlanmagan atom va molekulalarning shaffof qattiq jism sirti bilan o'zaro ta'sirining Raman-spektroskopiyasini tadqiq etish natijalari asosida:

tor kapillyar tizimlar va g'ovak muhitlar orqali gaz oqimlarini boshqarish, shuningdek, shaffof sirtning unda joylashgan molekulalar (atomlar) bilan o'zaro ta'siri intensivligini nazorat qilish usullari № OT-F2-45; "Взаимодействие структурированного светового поля с нано объектами" nomli fundamental loyihaning ilmiy-texnikaviy vazifalarini bajarishda foydalanilgan (O'zbekiston respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi ma'lumotnomasi № 02/14-299-son 26.01.2024-y.). Ilmiy natijalardan foydalanish kichik to'lqin uzunlikli yorug'lik nurlanishi ostidagi shaffof dielektrik silindr sirti yaqinida silindr radiusi va yorug'lik to'lqin uzunligi nisbatiga mutanosib yorug'lik maydoni intensivligi minimumlarini kuzatish mumkinligi to'g'risida xulosa qilishga imkon bergan;

rezonansli lazer nurlanishi ta'sirida ksenon atomlari bilan qattiq jism yuzasi o'rtasida adsorbsion potensialning o'zgarishi hisobiga hosil bo'lgan bog'lanishlarni ko'rsatuvchi rezonansli raman sochilish stoks-antistoks komponentasining spektral xususiyatlaridan va majburiy lazer nurlanish ta'sirida molekulalar energiyasi o'zgarishlarining spektrlari yordamida qattiq jism sirtidagi molekulalarning kimyoviy adsorbsiyasini aniqlash metodlari №FA-Ateh-2018-17: "Yangi psixofaol moddalarning iz qoldiqlarini tezkor yuqori sezgirlik bilan aniqlashning termionli uslublarini ishlab chiqish" mavzusidagi amaliy loyihaning ilmiy texnikaviy vazifalarini bajarishda foydalanilgan (O'zRFA №2/1255-294-

sonli ma'lumotnoma 09.02.2024-y.). Ilmiy natijalardan foydalanish organik molekulalarning metal oksidi qaynoq sirtiga adsorbsiyalanishida qatlamda sodir bo'ladigan geterogen reaksiyalar jarayonida bog'lanish energiyasi o'zgarishini baholash, shuningdek, molekulalarning metal oksidlari yuzasida adsorbsiya paytidagi zaryadlarning lokallashuv markazlarini aniqlashga yordam qilgan;

nanorelefli ZnO sirtiga yotqizilgan yupqa qatlamli C60 molekulalaridan iborat geterostrukturaga to'liq uzunligi 325 nm bo'lgan ultrabinafsha nur bilan yoritish natijasida "molekula+sirt" tizimi ta'sirlashishining kuchayishiga erishilishi va bu jarayon dinamikasi o'zgarishini raman sochilishi intensivligiga qarab baholash mumkinligidan hamda raman sochilishi spektorida maksimal chastotasi 1080 cm^{-1} to'g'ri kelgan cho'qqining intensivligi "C60+ ZnO" tizimidagi o'zaro elektron bog'lanishning bevosita ko'rsatkichi ekanligi to'g'risidagi ma'lumotlardan, №OT-Ateh-2018-503 "Si, Ni va ularning ionli bombalashdagi oksidlari yuza qavatining emission hamda optik xossalari, elektron strukturasi modifikatsiyasi" loyihasini bajarishda C60 va ZnO orasidagi yupqa qatlam chegarasida (interfeysida) raman sochilishini tavsiflashda foydalanilgan (O'zbekiston respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi ma'lumotnomasi № 02/17-804-son 18.03.2024-yil). Ilmiy natijalardan foydalanish raman sochilishi va fluorensensiyaning spektral xususiyatlaridan C60 molekulalari hamda ZnO yuzasi o'rtasida vujudga kelgan o'zaro ta'sirni baholash imkoni yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqotning asosiy natijalari 22 ta, shu jumladan, 13 ta xalqaro va 9 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida ma'ruza ko'rinishida bayon qilingan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 40 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yhatida 15 ta maqola, jumladan, 7 tasi horijiy, 8 tasi respublika jurnallarida, 1 ta monografiya, shuningdek, tadqiqotchilar, talabalar va ilmiy xodimlar uchun 2 ta metodik qo'llanma nashr qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, beshta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yhatidan tashkil topgan. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 221 bet, 43 ta rasm va 4 ta jadvaldan iborat.

DISSERTATSIYNING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi asoslangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga muvofiqi, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti aniqlangan, ishning fan va texnologiyalarni rivojlantirishning muhim yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan hamda ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, natijalarning ishonchliligi, nazariy va amaliy ahamiyati, natijalarning amaliyotga joriy etilishi, e'lon qilinganligi, ishning tuzilishi haqidagi ma'lumotlar, dissertatsiya mavzusi bo'yicha mamlakatimizda va xorijda amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlar sharhi keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**Molekulalar (atomlar)ning qattiq jism sirti bilan o'zaro ta'sirini lazer spektroskopiya metodlari yordamida o'rganish**" (adabiyotlar

sharhi) nomli birinchi bobida lazer nuri maydonida molekular (atomlar)ning qattiq jism sirti bilan ta'siri mexanizmlarining nazariy va amaliy tadqiqotlari natijalariga doir adabiyotlar sharxi keltirilgan. Bu sohada erishilgan yutuqlar, yechimini kutayotgan muammolar yoritilgan. Geterogen muhitda molekularning sirt bilan ta'sirini o'rganish bo'yicha tadqiqotlarning bugungi kundagi holati, ayniqsa, inert gaz ksenon va fulleren C60 molekulasining sirt bilan bog'lanishi hamda uning adsorbsiyalangan molekula spektral xarakteristikalariga ta'sirini o'rganishga qaratilgan masalalar ko'rib chiqilgan. Yorug'lik ta'sirida "molekula +sirt" tizimidagi bog'lanishlarning umumiy xarakteristikalari, ularning spektral tuzilish xususiyatlarini o'rganish bo'yicha adabiyotlarda keltirilgan ma'lumotlar tahlil qilingan.

Ekspirimental natijalarni miqdor jihatidan nisbatan to'g'ri yoritib beradigan va mavjud mexanizmlar ichida eng izchili hisoblangan o'zaro ta'sirning qutblanish mexanizmi bayon qilingan. Atomdagi elektron qobiqning yadroga nisbatan siljishi hisobiga elektr dipolning yuzaga kelishi va bu dipolning sirtga vujudga kelgan "ko'zguli aksi" orqali sirt bilan ta'sirlashishida, rezonans lazer nurining roli ochib berilgan. Bu dipollarning o'zaro ta'sirini hamda ularning sirtga nisbatan oriyentatsion qutblanishini hisobga oluvchi o'zaro ta'sir, jamoaviy tabiatga ega ekanligi ko'rsatib berilgan. Qutblanish mexanizmining vujudga kelishida, ayniqsa, molekularning sirtga yaqin joylashishi muhimligi ("molekula + sirt" tizimidagi masofa lazer nurining to'lqin uzunligi – λ dan kichik) ko'rsatib berilgan.

Molekula (atomlar)ning kapillyarlar va g'ovak shisha orqali diffuziyasiga lazer nurining ta'siri gazlar diffuziyasiga doir asosiy qonuniyatlar asosida tushuntirilib, oqimning tezligiga ta'sir qiluvchi asosiy fizik omillar asosida diffuziyani tezligini tavsiflovchi tenglamalar keltirilgan.

Berilgan xarakteristikali nanoolchamli geterotuzilmalar, uglerodli nanozarra – C60 fulleren va ZnO rux oksidi plyonkasining asosiy fizik-kimyoviy xossalari keltirilgan. C60 fulleren va ZnO rux oksidi yuqqa qatlamlari o'rtasida elektron bog'lanishning mavjud emasligi, bunday geterotuzilmalar asosida yuqori samarali elektro-optik qurilmalar yaratishga imkon bermaydi. Bunday kamchilikni bartaraf etish uchun turli fizik-kimyoviy metodlardan foydalaniladi. Ushbu bobda aynan mana shu fizik jarayonni amalga oshirish imkonini beruvchi "C60 + ZnO" tizimning raman sochilishiga oid spektrlarning xossalari bayon qilingan.

"Zaryadlanmagan molekularning (atomlarning) qattiq jism yuzasi bilan o'zaro ta'sirini o'rganishning eksperimental usullari" deb nomlangan ikkinchi bobida, raman spektrlarini qayd qilishga va gaz oqimlarini boshqarishga asoslangan qurilma tavsifi va tadqiqot obyektlarini tanlash bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.


Rezonans maydon ta'sirida molekular adsorbsion potensialining ortishini aniqlash. Shisha sirtiga adsorbsiyalangan brom molekularining konsentratsiyasining lazer nuri maydonida sezilarli o'zgarishini kuzatishga imkon beruvchi eksperimentlar, rezonans yorug'lik ta'sirida sirtidagi molekularning adsorbsion potensialining ortishini ko'rsatdi. Bu eksperimentlarda gaz fazasi

(molekula) va adsorbent dinamik muvozanatga keltirilib, o'lchashlar esa stasionar sharoitlarda olib borildi.

Lazer nurlanishining brom molekulalarining mayda g'ovakli membrana orqali diffuziyasiga va g'ovak muhitda molekulalarning adsorbsiyasiga ta'siri. Lazer nurlanishi ta'sirida rezonans molekulalar oqimini g'ovakli shishalar va kapillyarlarda boshqarishga doir eksperimentlar asosida diffuziya tezligining o'zgarishiga ta'sir qiluvchi asosiy omillar, bu kanalning o'lchami, ularni tayyorlash usuli va lazer nurini kanalga samarali kiritishdan iborat ekanligi ko'rsatildi.

1-rasmda, g'ovak muhitda molekulalar adsorbsiyasi va nurlanish ta'sirida ana shunday ko'p kanalli filtr orqali o'tayotgan brom molekulalarining diffuziyasini boshqarishga oid eksperimental qurilmaning blok-sxemasi ko'rsatilgan. Eksperimentlarda nurlanish manbai sifatida quvvati ~1Vatt bo'lgan argon lazeridan foydalanildi.

Argon lazerining ($\lambda=514,5$ nm) to'liq uzunlikli nurlanishi brom molekulalarining $^1\Sigma^+_0g \rightarrow B^3\Pi^+_{ou}$ o'tishiga mos to'liq uzunlikga rezonans bo'ladi. SF₆ molekulalarining diffuziyasiga oid eksperimentlarda 10,6 μm to'liq uzunligiga, 0,2 Vatt quvvatga ega SO₂ lazer nurlanishidan foydalanildi (00⁰1-10⁰ polosaning R20 chiziqlari, ν_3 SF₆ tebranishiga rezonansda bo'ladi).



1-rasm. G'ovak muhitda molekulalar adsorbsiyasi va lazer nurlanishi ta'sirida brom molekulalarining ko'p kanalli filtr orqali o'tishiga oid eksperimental qurilmaning blok-sxemasi. 1 – argon lazer ($\lambda=514,5$ nm), 2 – fotopriyomniklar, 3 – pog'onali attenyuator, 4 – brom sathini nazorat qiluvchi kollimator, 5 – bromli trubka, 6 – ballast hajm, 7 – aralashma gazlarni yuborish, 8 – nasos, 9 – reper kyuveta, 10 – g'ovak membranali kyuveta, 11 – mass-spektrometr KM-2, 12 – elektrorazryad nasos NORD-100.

Eksperimentlarda adsorbent sifatida g'ovak shishadan tayyorlangan, juda katta – 100 m²/g ga yaqin solishtirma sirtga, g'ovaklarning hajmi 0,18 cm³/g ga yaqin, g'ovaklarning radiusi esa – 10 nm tartibida bo'lgan plastinalardan foydalanildi. Bu turdagi g'ovak shishalar maxsus kimyoviy va issiqlik ishlov berish orqali olinadi.


Ma'lumki, raman sochilishi spektroskopiyasi va fluoressensiyasi molekulalar (atomlar)ning shaffof qattiq moddalarning sirti bilan o'zaro ta'sirini o'rganishda samarali metod hisoblanadi, shuning uchun brom molekulalari raman

sochilishi va fluoressensiyasi hamda shisha sirtida adsorbsiyalangan ksenon atomlarining asosiy spektral-energetik xarakteristikalari shu metoddan foydalangan holda, yuqorida keltirilgan eksperimental qurilma yordamida o'rganildi. Bu eksperimentlar yorug'lik ta'sirida adsorbentlarning bog'lanish potensialining ortishi, ularning erkinlik darajalarining va tebranish xossalaridagi o'zgarishlarni raman spektridagi tegishli o'zgarishlar orqali qayd qilish imkoniyatini beradi.

Atom va molekularning nanastrukturali shaffof sirt bilan ta'sirlashishida ham ularning raman spektrida tegishli o'zgarishlar kuzatiladi, shu sababli nanomateriallarni o'rganishda bu usul samarador usul hisoblanadi.

Shaffof qattiq jism sirtidagi molekularning raman sochilish intensivligi juda kuchsiz bo'lganligi sababli, ularni o'lchash uchun, eksperimentda spektrning adsorbsiyalangan molekulaga tegishli qismini ajratib olish yoki yorug'likni sirtidagi molekulaga selektiv ta'sir qildirish usuli bilan amalga oshirish mumkin.


Eksperimentda ishlatilgan asosiy modda shisha bo'lganligi sababli (shisha kapilyar, g'ovak shisha, kvars taglik) olingan raman spektr tarkibida, albatta, shishaga tegishli spektr mavjud bo'lib, uni tajribada asosiy spektrdan ajratib olish kerak bo'ladi. 2-rasmda g'ovakli kvars shishani argon lazeri bilan yoritilganda hosil bo'lgan spektr ko'rsatilgan. Spektrning intensivligi kuchsiz bo'lib, $\sim 440 \text{ cm}^{-1}$ maksimumga ega spektr kengligi 1000 cm^{-1} gacha oraliqda yotadi. Eksperimentda yuqori darajada sezgir spektrometrdan (DFS-24) foydalanib adsorbsiyalangan brom molekularining va ksenon atomlarining bir necha yuz sm^{-1} siljish masofasida raman sochilishining tor chiziqlari yuqori aniqlikda o'lchangan.



2-rasm. Kvars shishadan tayyorlangan toza (adsorbsiyalangan molekularsiz) g'ovak filtrning sochilish spektri. G'alayonlanish to'lqin uzunligi $\lambda = 514,0 \text{ nm}$.

Dissertatsiya ishida, yuqoridagi eksperimentlarda, ixtiyoriy uzunlikda va rivojlantirilgan sirtga ega bo'lgan optik nur toladan yasalgan jgutdan foydalanish orqali, raman sochilishi intensivligini keskin oshirish mumkinligi ko'rsatilgan. 3-rasmda shunday optik strukturaning ko'ndalang kesimi berilgan. Rasmdan ko'rinib turibdiki, bu turdagi nur toladan foydalanish adsorbent yuzasini keskin oshirish imkoniyatini beradi va nur tola to'lqin parametrini tanlash orqali, tarqalayotgan nurning bir modali rejimida raman sochilishi intensivligini keskin oshirish mumkin.

bo'ladi. Bundan tashqari nur tolada yo'naltirgichlarni shakllantirib, spektrning turli komponentalarini turli nur tola orqali yuborish mumkinligi ko'rsatilgan



3-rasm. Optik nur toladan tayyorlangan jgutning ko'ndalang kesimi.

Bu bobda, shuningdek, nanoo'lchamli geterotuzilma hosil qilish uchun ZnO rux oksidining yupqa qatlamlari va C60 fullerren molekulalarining parametrlarini tayyorlash hamda nazorat qilishning eng samarali va keng qo'llaniladigan metodlari hamda bunday materiallarning eng muhim xossalari bayon etilgan. Sprey-piroliz metodi rux oksidining temperaturasini, bosimini va konsentratsiyasini tanlash yo'li bilan eng muhim fizik, shu jumladan, nanotuzilmali relyefning optik xossalarini, ZnO plyonkaning kristallik darajasini boshqarish imkonini berishi ta'kidlangan.


“Shaffof qattiq jism sirtiga adsorbsiyalangan atomlarning spektroskopik tadqiqotlari” nomli uchinchi bobida o'zaro ta'sirlashish sababli, atom va molekulalarning turli fizik hamda kimyoviy sharoitlarda holatining o'zgarishi va bu ta'sirning miqdoriy xarakterlovchi fizik kattalik ta'sirlashish energiyasi ekanligi ko'rsatilgan. Ta'sirlashish energiyasining miqdori moddalar holatini belgilovchi asosiy kattalik bo'lib, misol sifatida, buni, masalan, gomoyadro ikki atomli molekulalarning mavjud bo'lishi va inert gazlarning agregat holatining o'zgarishida ko'rish mumkin.

Atom va molekulalarning sirt bilan o'zaro ta'sirini tadqiq qilishda atomlararo o'zaro ta'sir harakteri hamda uning bunday tizimlarning fizik-kimyoviy xossalari ko'rsatadigan ta'siri muhim ahamiyatga ega. Ushbu kontekstda lazer nurlanishi bilan nurlantirilganda qattiq jismning yuzasi bilan inert gazlarning, masalan, ksenonning umumiy o'zaro ta'sirlashishda atomlararo o'zaro ta'sirni hisobga olish muammosi tadqiqotning eng muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Inert gaz ksenonni o'rganishning samarali usullaridan biri bu raman spektroskopiyasi bo'lib, u lazer nurlanishi ta'sirida ksenonning atom tuzilishini tom ma'noda o'rganishga imkon beradi. Ksenon inert gaz bo'lib, normal sharoitda o'zini namoyon qilmaydi. Lekin lazer nurlanishi ta'sirida bu atomlarining qattiq jism yuzasiga bog'lanishi sababli, ksenonning molekulyar tebranish holatlarining vujudga kelishini kuzatish mumkin. Adsorbsion potensial energiya to'sig'i bo'lib, atomlar (molekulalar) qattiq jism yuzasida adsorbsiyalanishi uchun uni yengishi kerak bo'ladi. Lazer nurining ta'siri bu potensialni o'zgartirishi mumkin, bu esa adsorbsiyani ko'proq yoki kamroq bo'lishiga olib keladi. Fizik adsorbsiya jarayonida sirtida joylashgan atomlar va molekulalar adsorbsion potensial o'rada tebranishlarga uchraydi. Ushbu tebranishlarni kuzatish adsorbsion o'zaro ta'sirlarni

